



MADANIYATLARNING O‘ZARO TA‘SIRI. ENKULTURATSIYA VA AKKULTURATSIYA JARAYONLARI

Isayeva Shoira Boltabayevna

filologiya fanlari nomzodi, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
dotsenti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada madaniyat tushunchasining izohi keltiriladi, madaniyatlarning o‘zaro ta‘siri, enkulturatsiya va akkulturatsiya jarayonlari yoritiladi. Mazkur jarayonlarning asosiy farqlari, madaniyatlarning o‘zaro ta‘siri natijasida madaniyatlarda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lishi xususida ma‘lumot beriladi.*

Kalit so‘zlar: *madaniyat, enkulturatsiya, akkulturatsiya, assimilyatsiya, separatizatsiya, marginalizatsiya, integratsiya, akseptatsiya, yangi madaniyatning shakllanishi, reaksiya....*

Abstract: *This article explains the concept of culture, the interaction of cultures, the processes of enculturation and acculturation. Information is given on the main differences of these processes, the changes that occur in cultures as a result of the interaction of cultures.*

Key words: *culture, enculturation, acculturation, assimilation, separation, marginalization, integration, acceptance, formation of a new culture, reaction...*

Madaniyat – insoniyat libosi, muayyan shaxs yoki jamiyatning yashash tarzi, axloq me‘yorlari, dunyoqarashi, urf-odatlar, an‘analari, olamni anglash darchasi va o‘zligini ifodalash yo‘sini. Madaniyat *alohida individning* hayot faoliyati (shahsiy madaniyat)ni hamda *ijtimoiy guruhning yoki jamiyatning* hayot faoliyati usulini aks ettiradi. Dastlab madaniyat tushunchasi insonning tabiatga ehtiyojlari, maqsadiga muvofiq ta‘siri (yerni ishlash va hakoza) hamda insonning o‘zini tarbiyalash va o‘qitish ma‘nolarini ifodalagan. Keyinchalik madaniyat tushunchasi orqali taraqqiyot bilan bog‘liq mazmun tushunila boshlangan.

“Madaniyat” («cultio» va «culte») atamasi mutaxassislar fikriga ko‘ra, lotinchadan o‘girilganda “ishlov berish”, “parvarish qilish” degan ma‘nolarni ifodalaydi. Keyinchalik “ma‘rifatli bo‘lish”, “tarbiyalilik”, “bilimli bo‘lish” ma‘nolarida ham qo‘llana boshlagan.

G‘arbiy Yevropada madaniyat tushunchasi XVIII asrning oxiridan e‘tiboran hozirgi mazmunni kasb etgan bo‘lsa-da, faqat XX asrga kelib ijtimoiy va gumanitar fanlar kategorial tizimidan mustahkam o‘rin olgan.

Madaniyat mohiyatiga ko‘ra moddiy va ma‘naviy madaniyatlarga bo‘linadi. Kishilik tarixining uzoq davrlarida yaratilgan moddiy va ma‘naviy boyliklarni yaratish jarayoni quyidan yuqoriga, oddiylikdan murakkablikka, alohidadan umumiylikka tomon siljiydigan o‘ziga xos uzluksiz jarayon hisoblanadi.



Madaniyat – bu me`yorlar majmuasi, ya`ni nima ruxsat berilgani va nima taqiqlanganligi. Bu me`yorlar muayyan jamiyat tomonidan taqsimlanadi, ular insonlar tomonidan o`zlashtiriladi, inson esa uning bir qismiga aylanadi.

Inson tomonidan madaniyatning o`zlashtirilishi enkulturatsiya yoki inkulturatsiya (madaniyatga kirish) deyiladi.

Madaniyat ontogenez (individual rivojlanish) jarayonida o`zlashtiriladi.

Enkulturratsiya terminining muallifi Melvil Jin Xerskovits mazkur jarayonning ikkita bosqichini ajratgan:

Birinchi bosqich (tug`ilgan kundan boshlanadi) – axloq qoidalari, me`yorlarini o`zlashtirish bosqichidir. Ushbu bosqichda, shaxs tanlash va baholash huquqidan mahrum bo`ladi, madaniyatga kirishga “qarshilik” qila olmaydi, unda o`sadi, rivojlanadi va o`zidan oldingi etnik-madaniy tajribani faqat o`zlashtiradi.

Ikkinchi bosqich – bu jamiyatda qabul qilingan me`yorlarni baholash, muhokama qilish mumkin bo`lgan ongli bosqichdir. Ushbu bosqichda bu me`yorlarni o`zgartirish hamda madaniyatning yadrosiga ta`sir qilmaydigan subkulturalar paydo bo`lishi mumkin¹.

Insonni yoki guruhni yangi madaniyatga moslashtirish – akkulturratsiya jarayonidir.

Avvalo, akkulturratsiya va enkulturratsiya (inkulturratsiya) tushunchalarini bir-birdan farqlash kerak.

| Enkulturratsiya | Akkulturratsiya |
|--|--|
| • birlamchi madaniy me`yorlarga ega bo`lish | • madaniy me`yorlarni o`zgartirishning ikkilamchi jarayoni |
| • barcha insonlar hayot davomida boshdan kechiradi | • ayrim insonlarga ushbu jarayonga duch keladi |

Akkulturratsiya jarayonida inson o`zining ikki madaniy o`ziga xosligini saqlab qolish va unga yangi madaniyatda yashash zarurligiga duch keladi. Shunga ko`ra, insonlar akkulturratsiya jarayonida duch keladigan to`rtta madaniyat strategiyasi mavjud:

| | |
|----------------|---|
| Assimilyatsiya | inson o`zining madaniyatidan voz kechib, u bilan aloqalarini uzib, butunlay yangi madaniyatga qo`shilib ketadi. |
| Separatsiya | boshqa madaniyat me`yorlarini qabul qilishdan voz kechib o`z madaniyati bilan identifikatsiyani saqlash. Bunday holatda ozchilikni tashkil qiluvchi madaniy |

¹ Гузикова М. О. Основы теории межкультурной коммуникации : [учеб. пособие] / М. О. Гузикова, П. Ю. Фофанова; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. — Екатеринбург : Изд-во Урал.ун-та, 2015. — 124 с.



| | |
|------------------|--|
| | jamoada dominant madaniyat bilan aloqa qilmaslikka, (mumkin qadar) o'zlari jamoada tuzib alohida yashashga harakat qiladilar. |
| Marginalizatsiya | birlamchi madaniyat o'ziga xoslikni yo'qotish va yangi madaniyat bilan identifikatsiyalashning yo'qligidir (oraligida qolib ketish). |
| Integratsiya | akkulturatsiya jarayonining eng samaralidir. Bu asosiy madaniyatini yo'qotmasdan yangi madaniyatga kirishni o'z ichiga oladi. |

Assimilyatsiya strategiyasi ko'pincha o'z ixtiyori bilan boshqa mamlakatga (mintaqaga) uzoq vaqt yoki abadiy ko'chib ketadigan odamlar hayotida kuzatiladi.

Separatsiya strategiyasi o'z Vatani xohishlariga zid ravishda tark etishga majbur bo'lgan qochqinlarga xosdir. Agar bunday izolyatsiyaga dominant madaniyat vakillari da'vat etsa, bu segregatsiya deyiladi.

Marginalizatsiya insonning asl madaniy guruhini saqlab qololmasligi va yangi madaniyatga qo'shilolmasligidan kelib chiqadi. Marginalizatsiya odatda mezbon madaniyat tomonidan kamsitilishning natijasi ham bo'lishi mumkin.

Integratsiya ikki tomon (retsipient – oluvchi va donor – beruvchi madaniyatlar)ning o'zaro hurmati va har bir madaniyatning noyob xususiyatlarini saqlab qolish zarurligini tushinish va hamkorlik qilish istaklari orqali yuzaga keladi.

Akkulturatsiya ikki yoki undan ortiq madaniyatning bir-biriga ta'sir o'tkazishidir. Madaniyatlar o'zaro ta'sirining shakllari va tamoyillari farqlanadi. Tarixan o'zaro ta'sirning do'stona, ixtiyoriy (bunday holatlarda o'zaro aloqa teng hamkorlikka asoslanadi) hamda zo'rlash, mustamlakaga aylantirish, harbiy yo'l bilan bosib olishga (bunday holatlarda o'zaro aloqa bir tomonlama manfaatga asoslanadi) asoslangan shakllari ma'lum².

Yuqorida insonlar yangi madaniyatga kirishayotganda qanday strategiyalarni tanlashi mumkinligi haqida ma'lumot berilgan edi. Mazkur strategiyalar natijasida madaniyatlarda quyidagi jarayonlar ro'y berishi mumkin: akseptatsiya (bir madaniyat tomonidan boshqa bir madaniyatning yutib yuborilishi); yangi madaniyatlarning shakllanishi (bir nechta madaniyat kesishgan nuqtada yangi bir madaniyat shakllanishi mumkin); reaksiya (begona madaniyatning inkor etilishi); o'zlashtirish (begona madaniyat elementlarining o'zlashtirilishi), adaptatsiya (madaniyatlarning bir-biriga moslashishi)³.

Xulosa qilib aytganda, madaniyatlarning o'zaro ta'siri dunyoning madaniy xaritasida o'zgarishlarni yuzaga keltiradi, insoniyat hayotini yana-da rang-barang qiladi.

² Usmonova, Sh., Rixsiyeva, G. 2017. Madaniyatlararo muloqot. O'quv qo'llanma. Toshkent. – 135 b.

³ [Соотношение понятий «культура» и «цивилизация» по Шпенглеру \(infopedia.su\)](http://infopedia.su)



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гузикова, М. О. 2015. Основы теории межкультурной коммуникации: [учеб. пособие]. – Екатеринбург: Изд-во Урал.ун-та, – 124 с.
2. Usmonova, Sh., Rixsiyeva, G. 2017. Madaniyatlararo muloqot. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent. – 135 b.
3. Shirinova, Y.T. 2022. *Madaniyatlararo kommunikatsiya xususida // INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY. September.* [\(5\) \(PDF\) МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ, ПОСВЯЩЕННАЯ РОЛИ И ЗНАЧЕНИЮ ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В XXI ВЕКЕ \(researchgate.net\)](#)